

O'ZBEK TILIDAGI GIBRID JUFT SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Jo'rayev Shohruh Baxtiyorovich

“Cyber University” davlat universiteti, Nurafshon, O'zbekiston

E-mail: shjuraevphd@gmail.com

Annotatsiya. Maqola hozirgi o'zbek tiliga o'zlashgan qator gibrid juft so'zlar tahliliga asoslangan. Mustaqilligimizdan keyingi yillarda, tilimizga ko'plab xorijiy so'zlar o'zlashgan va ular orqali yasalgan gibrid juft so'zlarning shakli va ma'nolari o'rganilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot maqsadi qilib, rasmiy hujjatlar matnida uchrovchi gibrid juft so'zlarning semantik-struktur xususiyatlarini o'rganish belgilab olingan. Maqola davomida quyidagi vazifalar bajarilgan: lotincha va yunoncha o'zlashmalar bilan yasalgan juft so'zlarni rasmiy hujjatlar matnlaridan aniqlash, ular o'rtasidagi semantik munosabatlarni tahlil qilish, gibrid juft so'zlar yasalishida so'z turkumlarining uyg'unlashuv xususiyatlarini tahlil qilish. Mazkur tadqiqotni olib borishda tavsifiy tahlil va komponent tahlil metodlariga asoslanilgan.

Kalit so'zlar: juft so'zlar, o'zlashmalar, sinonim, rasmiy hujjatlar, gibrid terminlar.

Abstract. This article presents an analysis of various hybrid paired words that have been assimilated into contemporary Uzbek. Following the country's independence, there has been a notable influx of foreign lexicon into the language, yet the forms and meanings of the resulting hybrid words remain largely unexamined. Consequently, the primary objective of this research is to investigate the semantic and structural characteristics of hybrid words as they appear in official documents. The research undertook several tasks: first, to identify word pairs that exhibit Latin and Greek borrowings within the texts of official documents; second, to analyze the semantic relationships between these pairs; and third, to explore the distinctive features of word group combinations in the formation of hybrid pairs. The methodology employed in this research is grounded in descriptive and component analysis techniques.

Key words: Paired words, borrowings, synonymy, official documents, hybrid words.

Аннотация. Статья основана на анализе ряда гибридных парных слов, заимствованных в современный узбекский язык. В годы после обретения независимости в наш язык вошло значительное количество иностранных слов, однако формы и значения образованных на их основе гибридных парных слов остаются недостаточно изученными. В связи с этим целью данного исследования определено изучение семантико-структурных особенностей гибридных парных слов, встречающихся в текстах официальных документов. В ходе исследования были решены следующие задачи: выявление парных слов, образованных на основе латинских и греческих заимствований, в текстах официальных документов; анализ семантических отношений между ними; а также исследование особенностей сочетаемости частей речи при образовании гибридных парных слов. В процессе проведения исследования были использованы методы описательного и компонентного анализа.

Ключевые слова: парные слова, заимствования, синонимия, официальные документы, гибридные термины.

O'zbek tilining jahon miqyosidagi o'rni, globallashuv jarayonida tilimizning qay darajada rivojlanib borishi va o'zgarishlarga yuz tutishi bilan bog'liq xususiyatlarini birmabir, bosqichma-bosqich tahlil qilish va tilimizga kirib kelayotgan yangi tushuncha va strukturalarning ahamiyatini ochiqlash kabi yuzlab masalar tilshunosligimizda hali beri ochiq

qolmoqda. Shu boisdan, mazkur maqolada o'zbek tilining xorijiy tillar ta'sirida qanday o'zgarishlarga yuz tutgani va o'zbek tiliga o'zlashgan leksik birliklarning lug'at boyligimizga ta'siri bilan bog'liq muammolar o'rta tashlangan.

Jahon tilshunosligida o'zlashmalar va ularning tillar o'rtasidagi munosabatlari bir qator mahalliy va xorijiy tilshunoslar tomonidan turlicha talqin va tadqiq qilib kelinmoqda. Jumladan, jahon tilshunoslaridan H. Hokk, B. Josef, L. Blumfeld, E. Haugen, F. Durkin kabilar, rus tilshunoslaridan M. Stepanova, R. Budagov, D. Lotte va L. Krisinlarni misol keltirishimiz mumkin. Mahalliy tilshunoslarimizdan o'zbek tilidagi o'zlashma termin va so'zlar tadqiqiga zamonaviy tilshunoslarimizdan Sh. Rahmatullayev, H. Dadaboyev va A. Madvaliyev kabi olimlarimiz ilmiy-izlanishlar olib borgan. Sh. Raxmatullaev o'zlashmalar tilning ravnaqi uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi [Rahmatullayev, 2006: 106]. Agar tilshunoslikning mazkur holatini dunyoning global tillari miqyosida olib qaraydigan bo'lsak ham, aksariyat keng qo'llanuvchi ingliz, arab, fransuz, ispan va rus tillarining lug'at tarkibi ham xorijiy o'zlashmalarning son jihatdan yuqori o'rin egallashini kuzatamiz. Ingliz tilshunoslari H. Hokk va B. Joseflarning talqiniga ko'ra asos tildan bir elementning o'zlashtiruvchi tilga o'tishi bu zaruriyat. U xoh iqtisodiy-siyosiy yangilik bo'lsin, xoh ijtimoiy-madaniy, farqli tillarda so'zlashuvchilar orasidagi aloqa natijasida bir so'z, yoki tushunchaning o'zlashtirilishi o'zlashtirgan tilda mavjud bo'lmaydi, yoki aynan o'sha tushunchani ifodalab bermaydi, va shu sababdan begona leksema qabul qilinish hodisasi sodir bo'ladi [Hokk&Josef, 2009: 258].

A. Madvaliyev "gibrid terminlar" tushunchasini izohlar ekan, o'zbek tiliga o'zlashgan baynalmilal tillarning so'zlari yoki terminelementlari bilan o'zbekcha so'zlarning birikishidan hosil bo'luvchi qo'shma so'zlarni anglatuvchi lingvistik termin sifatida talqin etgan [Madvaliyev, 2020: 14]. Shundan kelib chiqib, ikki va undan ortiq komponentli tilimizdagi bir qismi baynalmilal leksik birlikdan va ikkinchi qismi o'zbekcha so'zdan iborat juft so'zlarga nisbat berganda ham gibrid juft so'zlar tushunchasini qo'llash mumkin. Qolaversa, juft so'zlar termini turli tillarda turlicha talqin qilinish holatlari kuzatiladi. Hatto, imloviy jihatdan ham juft so'zlar dunyo tillarida turlicha yondashuvlar mavjud. O'zbek tilida juft so'z tushunchasi ikki mustaqil ma'no anglatuvchi so'zning bir biri bilan hokim-tobesiz shakllanishiga aytiladi. Agar so'z birikmasida hokim va tobelik holati kuzatilsa, bunday so'zlar juft emas, balki qo'shma so'z sanaladi [Hojiyev, 1963: 84]. Demak, juft so'zlar uyushgan holda turli xil (ko'p holatlarda ikki va uch xil ma'nolarda) doirdagi semantik ma'nolarni umumlashtirib ifodalovchi so'z birikmasi hisoblanadi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan rasmiy hujjatlarda o'ttizdan ortiq keng uchrovchi lotincha va yunoncha o'zlashmalar bilan yasalgan takror so'zlar aniqlandi. Shu jumladan, lotinchadan o'zlashgan lekisk birliklar va terminlar uchrovchi takror so'zlar: *to'lov-kontrakt, moddiy-texnik, muhandis-texnik, uy-joy-kommunal, loyiha-konstruktorlik, axborot-kommunikatsiya, normativ-huquqiy, o'quv-laboratoriya, ekspert-kriminalist, pul-kredit* kabilar. Yunon tilidan o'zlashgan so'zlar bilan yasalgan va rasmiy hujjatlar matnida topilgan hujjatlar esa *axborot-psixologik, tarbiyaviy-proflaktika, ilmiy-pedagogik* kabi birikmalardir. Rasmiy matnlarda aniqlangan o'zlashmali juft so'zlarda antonimlik xususiyati kuzatilmadi, aksariyat hollarda ma'lum turga oid komponentlardan tashkil topgan va sinonim so'zlardan tashkil topgan juft so'zlar aniqlandi. Masalan, *normativ-huquqiy, loyiha-konstruktorlik, uy-joy-kommunal, o'quv-laboratoriya, tarbiyaviy-proflaktika* kabilar.

Juft so'zlarning struktur komponentlari tartibi ularning bo'g'inlari bilan bog'liq. Bunday holatda, kam bo'g'inli so'z, ko'p bo'g'inli so'zdan oldin qo'yiladi: *uy-joy-kommunal* – uch qismdan iborat juft so'z bo'lib, uy, joy va kommunal so'zlarining birikmasidan hosil qilingan.

Bunda har uchala qism ham ot soʻz turkumi tarkibiga kiruvchi soʻzlar boʻlib, kommunal soʻzi oʻzbek tilidagi oʻzlashma va “shahar yoki qishloqdagi turli xil xizmatlarni koʻrsatuvchi xoʻjaliklar”ni ifodalab keladi [OʻzTIL, 2006: 395]. Semantik xususiyatiga koʻra mazkur birikma “toʻda va qismni ifodalaydi, yaʼni maʼlum bir hududdagi aholi uylari, maktab, kasalxona va ovqatlanish maskanlari va shunga oʻxshash binolarni hamda ular bilan bogʻliq xoʻjalik tashkilotlarini umumlashtiruvchi tushuncha.

Baʼzi holatlarda rasmiy hujjat matnlarida juft soʻzlarning komponent moslashuvi bilan bogʻliq struktur xatoliklar kuzatildi: *tarbiyaviy-proflaktika* juft soʻzining semantik doirasi tarbiya va uning buzilishi oldini olish masalalari bilan bogʻliq umumiy tushunchani ifodalaydi. Ammo, rasmiy hujjat matnida mazkur juft soʻzning struktur tuzilishda morfemik xatolik mavjudligi aniqlandi. Bunda, “tarbiyaviy” – soʻzi sifat boʻlib, “proflaktika” esa ot soʻz turkumida kelgan. Matndagi jumlagi eʼtibor qaratsak: “Komissiya tomonidan tuzalish yoʻliga oʻtmagan deb topilgan mahkumlar bilan tarbiyaviy-profilaktika ishlari muassasa psixologini jalb etgan holda alohida reja asosida amalga oshiriladi. [OʻRQ-817-son, 2023]” – gapida proflaktika ishlari soʻz birikmasi hokim va tobe munosabatda bir biri bilan uyushib kelgan. Holbuki, juft soʻzning birinchi komponenti sifat turkumi holida qoldirilgan. Oʻzbek tilida bunday holatlar nazariy jihatdan juftlik hosil qilmaydi, va defis bilan yozilishga ham hojat yoʻq. Mazkur juft soʻzning birinchi qismidagi “viy” sifat yasovchi qoʻshimcha olib tashlanish orqali, “*tarbiya-profilaktika*” shaklida juftlashadi va struktur xatolik bartaraf etiladi. Xuddi shunga oʻxshash struktur xatolik axborot-psixologik juft soʻzida ham koʻrish mumkin. Bu holatda ham, juft soʻz qoidalariga “axborot” soʻzining sifat soʻz turkumiga xos shakli “axboriy” soʻzidan foydalanish toʻgʻri deb topiladi.

Maqola tadqiqi davomida oʻzbek tiliga oʻzlashgan lotincha va yunoncha soʻzlar bilan yasalgan bir qator gibrid juft soʻzlarning semantik va struktur xususiyatlarining tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalaridan quyidagilar xulosa qilindi:

- Gibridlik holati bilan juftlashgan soʻzlarda oʻzbekcha komponentlar birinchi va lotincha va yunoncha komponentlar birikma sʻngida kelish holatlari;
- Oʻzbekcha soʻz va lotincha va yunoncha oʻzlashmalarning juft soʻzlar yasalişida bir semantik tur va sinonim doirasida birikishi kuzatildi va bunda antonim maydonda juftlashgan soʻzlar topilmadi;
- Baʼzi holatlarda sifat+ot va ot+sifat holatida uygʻunlashish holatlari. Bunday holatlar oʻzbek tilidagi juft soʻzlarning yasaliş qoidalariga nomutanosib deb qaraldi.

Tadqiqot natijalari yana shuni koʻrsatdiki, mazkur mavzuda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli yoʻq va oʻzbek tilida juft soʻzlar yasalişidagi gibridlik holatlarining struktur va semantik jarayonlarida ochiq qolayotgan koʻplab masalar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hock, Henrich., Joseph, Brian. (2009). *Language history, language change, and language relationship: An introduction to historical and comparative linguistics*. Berlin: Mouton de Gruyter.
2. Hojiyev, A. (1963). *Oʻzbek tilida qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar*. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/
3. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi adabiy oʻzbek tili*. Toshkent: “Universitet”.
4. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати [Матн] / Абдуваҳоб Мадвалиев, Неъмат Маҳкамов, Зухра Мираҳмедова, Акмалхўжа Саиднўмонов. – Тошкент: “Donishmand ziyosi”, 2020. – 280 б.
5. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati. II jild*. (2006). Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.

6. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-817-son qonuni. (15.02.2023). *O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida.* <https://lex.uz/uz/docs/-6384468>